



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 03 | pp. 17-22 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA BYUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LAR BO'YICHA MOLIVAVIY HISOBOTLARNI AXBOROT IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH



Karayev Payzillaxon Yusufxonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi.

e-mail: karaevfayzullokhon@gmail.com.

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil qilishda byudjetdan tashqari mablag'lar va ularni moliyaviy hisobotlar aks ettirish tartiblari, axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari yaratilgan. Oliy ta'lim muassasalarida byudjet tashqari mablag'larning buxgalteriya hisobini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-nazariy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim muassasasi, byudjet hisobi, byudjet tashqari mablag'lar, byudjet mablag'lari, moliyalashtirish, nazorat.

РАСШИРЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ ПО ВНЕБЮДЖЕТНЫМ СРЕДСТВАМ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация. В данной статье описаны внебюджетные фонды и порядок их отражения в финансовой отчетности, вопросы повышения информационных возможностей в организации деятельности высших учебных заведений. Разработаны научно-теоретические предложения в связи с совершенствованием учета внебюджетных средств в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: высшее учебное заведение, бюджетный учет, внебюджетные фонды, бюджетные средства, финансирование, контроль.

EXPANDING THE INFORMATION CAPABILITIES OF FINANCIAL REPORTING ON EXTRA-BUDGETARY FUNDS IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS.

Abstract. In this article, extra-budgetary funds and the procedures for reflecting them in financial reports, and the issues of increasing information capabilities in the organization of the activities of higher education institutions are described. Scientific-theoretical proposals have been developed for the improvement of the accounting of extra-budgetary funds in higher education institutions.

Keywords: higher education institution, budget accounting, extra-budgetary funds, budget funds, financing, control.

Kirish qismi. Davlat oliy ta'lim muassasalari byudjet tashkiloti sifatida e'tirof etilib, ularning moliyaviy hisobotlari hisob jarayonining yakuniy bosqichi sanaladi. Shu nuqtai

nazardan barcha foydalanuvchilarga byudjet hamda byudjetdan tashqari mablag‘lari qaysi maqsadlarga sarf etilishi, daromad va xarajatlar smetasi, xarajatlar smetasi ya‘ni asosiy moliyaviy rejasi qanday amalga oshirilganligi bo‘yicha axborot beruvchi asosiy manba bo‘lib hisoblanadi. Ta‘lim muassasasida byudjet ijrosi ta‘minlash maqsadida tegishli organ tomonidan moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish orqali byudjet ijrosi to‘g‘risidagi tayyorlangan ma‘lumotlar asosida mas‘ullar hamda foydalanuvchilar byudjetni ijro etish natijalarining sifat xususiyatlari to‘g‘risida xulosa chiqarishlari mumkin bo‘ladi.

Shu uchun ham oliy ta‘lim muassasalarining buxgalteriya bo‘limining asosiy vazifasi – moliyaviy hisobotlarni o‘z vaqtida tuzib, (hozirgi kunda davlat oliy ta‘lim muassasalarida UzASBO dasturi asosida tuziladi) belgilangan tartibda tasdiqlangan holda yuqori tashkilotga (vazirlik), hududiy iqtisodiyot va moliya tashkilotiga topshirilishi, mazkur hisobotlarni tahlil qilish va nazoratini amalga oshirish talab etiladi. Bu esa ta‘lim muassasasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari asosida foyda bilan yakunlashni, byudjetdan tashqari daromadlarni ko‘paytirishni, mavjud moliyaviy resurslardan samarali foydalanishning eng maqbul yechimlarni topishda asosiy vosita sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Byudjet tashkilotlarida byudjet hisobini tashkil qilish va ularning nazorati masalalarining nazariy hamda uslubiy asoslarini tadqiq etish, takomillashtirish yuzasidan qator xorijlik olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Xususan, N.Kondrakov, O.Krasnoperova, T.Maslova, O.Mitina, T.Poleshuk, A.Ushakovni kiritish mumkin. Respublikamizdagi yetuk iqtisodchi olimlarimizdan A.Bakaybayeva, A.Ibragimov, K.Ibragimov, S.Mexmonov, M.Ostanaqulov, A.Ostonokulov, B.Sugirbayev, I.Qo‘ziyev, Sh.G‘aniyev, B.Hamdammov, Z.Xamidova, A.Xojayev, Sh.Qurbonovlarning ilmiy ishlanmalarida byudjet tashkilotlarida byudjet hisobi, byudjet hisoboti, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobi va auditi, byudjet tashkilotlarida ichki audit va moliyaviy nazorat, byudjet nazoratining nazariy masalalari hamda ularni rivojlantirish yo‘nalishlari tadqiq qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning asosiy konseptual g‘oyasi O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishini ta‘minlash maqsadida yirik kompaniyalarning moliyaviy ahvolini oshkor etishni samarali tashkil etish, shuningdek innovatsion va investitsiya faoliyatini rag‘batlantirish vositasi sifatida konsolidatsiyalashgan hisobotning roli va ahamiyatini asoslashdan iborat. Fikrimizcha, O‘zbekistonning bugungi kundagi iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bu dunyo bozorlariga chiqishdan iborat, bunda innovatsion yutuqlarni ta‘minlashga qaratilgan strategik yo‘nalishi moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga qaratilgan. Xalqaro standartlarning yaqqol ko‘rinishlaridan biri sifatida konsolidatsiyalashgan hisobotni keltirish mumkin. Shundan kelib chiqqan holda tadqiqotda umumiy ilmiy usullardan induksiya va deduksiya, monografik kuzatish qo‘llaniladi, shuningdek tadqiqotning axborot asosi sifatida O‘zbekistonda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, sohaga oid ilmiy asarlar, ommaviy axborot vositalari e‘lon qilingan materiallar olingan.

Tahlil va natijalar. Hozirgi kunda oliy ta‘lim muassasalarining mablag‘larning moliyaviy oqimlari va undan boshqaruv qarorlari qabul qilish maqsadida foydalanishda moliyaviy hisobot ma‘lumotlarining dastlabki, joriy hamda yakuniy tahlillari asosida turli faoliyatlarini baholash mumkin. Ta‘lim muassasasining moliyaviy hisobotlari nafaqat

amalga oshirilgan operatsiyalarning hujjatlarda aks ettirgan natijalari, balki ta'lim muassasasining boshqaruv siyosatini shakllantirishda ishtirok etuvchi, kelgusi strategik faoliyatlarini belgilovchi muhim vosita hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalari tomonidan taqdim etiladigan choraklik va yillik moliyaviy hisobotlariga tushuntirish xatlari ilova qilinadi. Mazkur tushuntirish xatida ta'lim muassasasining xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi ijrosi jarayoniga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar sirasiga ta'lim muassasalaridagi soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar yuzasidan taqdim etilgan imtiyozlar hamda ularning sarflanishi to'g'risida batafsil ma'lumotlari beriladi.

Shuning bilan birga hisobot davrida oliy ta'lim muassasalariga beg'araz yordam va markazlashgan tartibda kelib tushgan moddiy qiymatliklar to'g'risidagi ma'lumotlar, kamomadlari aniqlanganligi va yo'qotilgan yoki o'g'irlangan pul mablag'lari, boshqa tovar-moddiy qiymatliklar summasi kabi moliyaviy hisobotlarga bog'liq bo'lgan holatlar yuzasidan tushuntirish taqdim etiladi. "Hisobot yili birinchi choragida moliyaviy hisobotlarni tushuntirish xatiga asosiy vositalar va boshqa aktivlar (jumladan, tugallanmagan qurilish va o'rnatiladigan asbob-uskunalarni) qayta baholash bo'yicha axborotlar yoritiladi. Muassasada rahbari yoki uning o'rinbosari (birinchi imzo huquqidan foydalanuvchi shaxs), bosh buxgalter yoki uning o'rinbosari (ikkinchi imzo huquqidan foydalanuvchi shaxs) hamda reja-moliya bo'limi boshlig'i tomonidan tushuntirish xati imzolanib, tashkilot muhri asosida tasdiqlanadi"[1]. Buxgalteriya hisobi sifatini baholash ta'lim muassasasining samaradorligi bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Shuningdek bugungi kunda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlar asosida tayyorlanib, taqdim etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bizga ma'lumki, standart tushunchasi inson faoliyatining ma'lum bir sohasida me'yorlar va qoidalar to'plamini o'rnatadigan me'yorlarga mosligini anglatadi. O'z navbatida buxgalteriya hisobini andozalari asosida moliyaviy-iqtisodiy axborotlarning quyidagi o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini ko'rsatib beradi:

- foydalilik – ya'ni taqdim qilinayotgan ma'lumotlar amaliy faoliyat natijalarini ifoda etgan holda naflikni ko'rsatish zarur bo'ladi;
- tekshiriluvchalik xususiyati – mustaqil auditorlar tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar asosida qay holatda ekanligini aniqlash imkoniyatining mavjudligi;
- o'lchovlilik xususiyati – taqdim etiladigan ma'lumotlar pul birliklarida yoki ularni baholash imkoniyatini ko'rsatishi kerak.

Mamlakatimizda buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisob hamda taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlar har tomonlama iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning umum qabul qilingan xalqaro standartlariga yaqinlashmoqda. Bizning fikrimizcha, OTMda buxgalteriya hisobi tizimining samarali qo'llanilishi asosida taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlarning ichki va xalqaro miqyosda foydalanish uchun ular bo'lgan quyidagi asosiy talablarga javob berishi zarur:

- obyektivlik, aniqlik va shaffoflik;
- muvofiqlik;
- ishonchlilik va o'z vaqtida taqdim etish;
- ma'lumotlarni solishtirish imkoniyati.

Moliyaviy hisobot ma'lumotlari foydalanuvchilarga ta'lim muassasasining moliyaviy-iqtisodiy holati va rivojlanish tendensiyasini aniqlash maqsadida ma'lum vaqt oralig'idagi turdosh ta'lim muassasasining moliyaviy hisobotlariga solishtirish imkonini yaratishi zarur. Shu bilan birga, ochiqlik tamoyiliga muvofiq manfaatdor tomonlar orqali oshirilayotgan o'zgarishlari sabab va oqibatlari to'g'risida xabardor qilishi kerak.

Xalqaro amaliyotda "moliyaviy hisobotlarning 2 guruhga: statistik va dinamikka bo'linadi. Statistik hisobot deganda ma'lum bir vaqtdagi moliyaviy-iqtisodiy holatni tavsiflovchi balans (ta'lim muassasasining moliyaviy holati to'g'risidagi hisobot) tushuniladi. Dinamik hisobot deganda ma'lum bir davr uchun xo'jalik operatsiyalari majmui natijalarini aks ettiruvchi foyda va zarar to'g'risidagi hisobot tushuniladi" [3].

"Dinamik moliyaviy hisobot, asosan, ma'lum bir davr uchun foyda va zarar to'g'risidagi hisobotni o'z ichiga oladi, ikki qismdan iborat:

1. Aktivlarning kirib kelishi (ko'payishi), daromadlar toifasiga;
2. Aktivlarning chiqib ketishi (kamayishi), xarajatlar toifasiga kiradi.

Daromadlarning xarajatlardan oshib ketishi natijasi oliy ta'lim muassasasining foydasi kelib chiqadi. Dinamik moliyaviy hisobot quyidagi prinsiplar (tamoyillar) asosida tuziladi:

- hisobot davri (hisobot taqdim etish berish prinsipi);
- konservatizm;
- daromadlarning xarajatlar bilan bog'liqligi;
- buxgalteriya hisobi va soliq hisobi o'rtasidagi munosabatlar.

Xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotlarni taqdim etishda qo'shimcha ravishda quyidagilar ishlar ham amalga oshiriladi:

- buxgalteriya hisobining ayrim tamoyillari;
- buxgalteriya hisobi va xo'jalik operatsiyalarini kodlash;
- aktivlarni baholash usullari;
- hisobot berish tartibi;
- buxgalteriya hisobi va soliqqa tortiladigan foydani aniqlash usullari;
- moliyaviy hisobotga tuzatishlar kiritish tartibi va usullari;
- iqtisodiy faoliyat natijalarini tahlil qilish usullari" [4].

Oliy ta'lim muassasalarida faoliyatida hisoblash prinsipini qo'llash Xalqaro Buxgalterlar Federatsiyasi Davlat sektori qo'mitasi tomonidan tayyorlangan Davlat sektori moliyaviy hisobotining xalqaro standartlari (IPSASB) asosida talab etiladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi byudjet hisobining 1-sonli "Hisob siyosati" standartida "Hisoblash prinsipiga muvofiq aktivlar, passivlar, daromadlar va xarajatlar, byudjet tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalari va holatlar byudjet hisobida bu harakatlar yuzasidan pul mablag'lari yoki ekvivalentlari olingan yoxud to'langan paytda emas, balki shu harakatlar sodir etilgan (yoki haqiqatda olingan) paytda aks ettirilishi lozim" [2].

Oliy ta'lim muassasalarida hisoblash usuli asosida boshqaruv uchun katta imkoniyatlar beradi, u davlat aktivlari va majburiyatlari haqida to'liq ma'lumotlarni olish imkonini taqdim etadi. Hisoblash usuli qat'iy tartibga solinishi kerak, chunki daromadlar va xarajatlarni hisobga olish, moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan aktivlarni baholash, bozor qiymati bo'yicha baholashning turli xil variantlari mavjud. Xususan oliy ta'lim

muassasalarida “Ta’lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag‘lar harakati to‘g‘risidagi hisobot” da oliy ta’lim muassasalarini o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag‘larning shakllanishi va sarflanishiga ma’lumotlar keltirilgan bo‘ladi [8], [10]. “Ta’lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag‘lar harakati to‘g‘risidagi hisobot” da oliy ta’lim tashkilotlaridagi o‘qitishning to‘lov-kontrakt bo‘yicha tushgan mablag‘lar harakati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aks ettirish” [2] uchun mo‘ljallangan. Oliy ta’lim muassasalari faoliyat yo‘nalishlaridan kelib chiqib, o‘qitishni to‘lov-kontrakt shakli asosida tushadigan daromadlarni tan olish mezonlari yetarlicha belgilanmaganligini ko‘rish mumkin. Bunda quyidagi muammolar:

1. To‘lov shartnoma mablag‘lari asosan kassa usuli asosida pul kelib tushgandan so‘ng daromad sifatidan tan olinmoqda, ya’ni hisoblash prinsipi asosida emasligi bo‘lsa;

2. Oliy ta’lim muassasalarida bir o‘quv yili ya’ni 2 yilni ma’lum qismlari (joriy yilning avgust oyi oxiridan kelgusi yilning iyul oyi) uchun to‘lov shartnoma to‘lovlari belgilanadi, moliyaviy hisobot ma’lumotlarida esa moliya yili asosida amalga oshirilib, daromadlar va xarajatlarni tan olishda bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bu o‘z navbatida, buxgalteriya hisobi tamoyillariga muvofiq davlat oliy ta’lim muassasalarida to‘lov-kontrakt shakli mablag‘laridan daromadlarini tan olish bilan bog‘liq xarajatlarni aniq o‘lchash va ishonchli baholash bo‘yicha uslubiy muammolarning yechimini topish zarur [6], [9].

Shu nuqtai nazardan davlat oliy ta’lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shakli asosida kelib tushgan mablag‘larini hisobga olishda daromadlar va xarajatlarning o‘zaro muvofiqligi tamoyiliga amal qilmayotganligini ko‘rish mumkin. Aksincha esa, oliy ta’lim muassasalarida daromadlarni tan olishda mazkur daromadlar bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar aniqlangan va hisobga olinishi zarur. Ya’ni, ular daromadlar vujudga kelishi — ta’lim muassasasining shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga mablag‘larning kelib tushishi bilan emas, balki mazkur daromadlar bosqichma-bosqich (oyma-oy) daromad sifatida tan olinishi va buxgalteriya hisobiga to‘g‘ri aks ettirilishi, fikrimizcha, uslubiy jihatdan to‘g‘ri sanaladi.

Xulosa va takliflar. Davlat oliy ta’lim muassasalaridagi davlat aktivlari va majburiyatlari o‘rtasidagi farq sof aktivning qiymatini tashkil qilib, ya’ni davlat boshqaruvi sektori faoliyati natijasi hisoblanadi. Shunday kelib chiqqan holda daromad minus xarajatlar davlat farovonligining oshishi hisoblanadi. Mazkur hisob-kitoblarni amalga oshirish zaruriyati davlat oliy ta’lim muassasalari xarajatlarining kassa va haqiqiy xarajatlarga bo‘linishi bilan bog‘liq hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasalaridagi byudjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar talablariga muvofiq shakllantirish konsepsiyasini takomillashtirishda quyidagilarni:

- ta’lim muassasalarida byudjetdan tashqari olingan daromadlarini uning faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha hisobga olish tartibini joriy etish;

- ta’lim muassasalarida byudjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha prognoz ma’lumotlarini hisobga olish tizimini ishlab chiqish;

- ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati jarayonida yaratilgan nomoddiy aktivlarni hisobga olish va baholash usullarini ishlab chiqish (masalan gudvil va boshq.) zarur bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2018 yil 18 dekabrda 157-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining «Byudjet hisoboti» nomli byudjet hisobining (3-sonli BHS) standarti. <https://lex.uz/docs/4176111>
2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2016-yil 12-dekabrda 91-sonli "O'zbekiston Respublikasi byudjet hisobining standarti (1-sonli BHS) "Hisob siyosati"ni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2016 yil 27 dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2853), <https://lex.uz/ru/docs/3083849>
3. Семенова Н.Н. "Учетно-аналитическое обеспечение управления внебюджетной деятельностью бюджетной образовательной организации" диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Йошкар-Ола, 2009. – с. 106.
4. Международные стандарты финансовой отчетности: [учеб. пособие] / А. С. Тетерлева ; М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. – Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2016. – 176 с.
5. Tohirovich, Q. N. (2021). International financial accounting standards in Uzbekistan. *Academicia: An international multidisciplinary research journal*, 11(4), 328-333.
6. Основы бухгалтерского учета и анализа: [учеб. пособие] / Е. Р. Синянская, О. В. Баженов ; М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. федерал. ун-т. – Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2014. – 267 с.
7. Международные стандарты финансовой отчетности: базовый курс: учеб. пособие / авт.-сост. Н.Н. Ильшева, Е.Р. Синянская, О. Е. Решетникова, О.В. Савостина. – Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2017. – 236 с.
8. Абдурахимов, К. (2013). Бюджет ташкилотларида асосий воситаларнинг бухгалтерия ҳисоби. *Экономика и финансы (Ўзбекистан)*, (11), 51-64.
9. Temirqulov, A., & Qudbiyev, N. (2022). Iqtisodiy rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda soliq siyosati o'rni. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(2), 121-127.
10. Хожаев, А. (2021). Олий таълим муассасаларининг тадбиркорлик фаолияти–бюджетдан ташқари маблағларнинг муҳим асоси сифатида. *Iqtisodiyot va ta'lim*, (6), 200-209.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

